

## **Ta'lism - tarbiya tizimidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq**

Lobar Sagdullaevna Raxmonova  
Jizzax shahri, 6-maktab

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lism - tarbiya tizimidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liqligi, bugungi kunda yoshlarni hayotga tayyorlashda o'qituvchi va murabbiylarning roli haqida so'z yuritiladi. Jamiatning bugungi va kelajagi, uning madaniy - ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lism tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining har bir chiqishlarida o'qituvchilar, ustoz va murabbiylar Uchinchi renessans poydevori buniyodkorlari, ma'rifat, ma'naviyat bog'inining bog'bonlari ekanini qayta-qayta ta'kidlaydilar.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, murabbiy, ta'lism-tarbiya, renessans, ma'naviy olam, kamolot, ijodiy qobiliyat, milliy g'urur, milliy madaniyat, vatanparvarlik, ta'lism, ma'naviyat bog'inining bog'bonlari

### **The success of the educational system largely depends on teachers and coaches**

Lobar Sagdullaevna Rakhmonova  
Jizzakh city, 6-school

**Abstract:** This article talks about the fact that success in the educational system largely depends on teachers and coaches, and the role of teachers and coaches in preparing young people for life today. The present and future of the society, its cultural, educational and spiritual potential is determined by the level of development of the education system. President Shavkat Mirziyoyev repeatedly emphasizes that teachers, mentors and coaches are the founders of the foundation of the Third Renaissance, the gardeners of the garden of enlightenment and spirituality.

**Keywords:** teacher, coach, education, renaissance, spiritual world, maturity, creativity, national pride, national culture, patriotism, education, garden of spirituality

Jamiatning bugungi va kelajagi, uning madaniy - ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lism tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining har bir chiqishlarida o'qituvchilar, ustoz va murabbiylar uchinchi renessans poydevori buniyodkorlari, ma'rifat, ma'naviyat

bog‘ining bog‘bonlari ekanini qayta-qayta ta’kidlaydilar. Haqiqatdan ham insoniyatning ma’naviy dunyosini tartibga soluvchi, uning ушлени ezgulik tomon yo‘naltirib turuvchi, ilm mash’alasini ko‘tarib, shogirdlarni izidan ergashtira oluvchi inson muallimdir.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi va murabbiylarga bog‘liq. Mamlakatimizda o‘qituvchi va murabbiylarning obro‘-e’tiborini yanada oshirish, yoshlarimizni bizdan ko‘ra bilimli, kuchli, dono va albatta, baxtli bo‘lishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Buni esa davlatimizning o‘qituvchi va murabbiylariga ko‘rsatayotgan yuksak ehtiromi deb baholashimiz lozim. Har yili “Mustaqillik” hamda “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” bayrami arafasida ta’lim-tarbiya berishda o‘rnak ko‘rsatayotgan ustozlar davlatimizning yuksak mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlanmoqda. O‘qituvchi va murabbiylarning mas’uliyatli, ammo sharaflı kasblarini bir mash’alga qiyos etish mumkin. CHunki ular o‘z umrlarini o‘zgalar yo‘lini oydin qilishga bag‘ishlagan xokisor insonlardir. Xalqimizda o‘qituvchi - millat tarbiyachisi deb bejiz aytilmagan. O‘qituvchi bugun o‘zi ta’lim berayotgan shogirdining kamoloti ila kelajakka poydevor qo‘yadi. Kelajak farzandlarimizni, ularni komillik va kamolot cho‘qqisiga esa o‘qituvchi - ustozи boshlab boradi. Barchamizga ayonki, millat va mamlakat taqdiri yoshlar qo‘lida. Jamiatning istiqboli, taqdiri va taraqqiyotini bugun biz qanday yosh avlodga topshirayotganimizni anglayapmizmi? Zero, o‘z zamonasining ajoyib vatanparvar o‘g‘loni Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, najot- yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb ta’kidlagani bejizga emas edi. Albatta, yoshlar tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, uning samaradorligini oshirishga qancha ko‘p e’tibor qaratilsa, natijasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to‘plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy -ma’rifiy salohiyatini yanada ko‘tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Bugungi g‘oyat tahlikali, ham iqtisodiy, ham ma’naviy inqirozlar kuchayib borayotgan, yoshlar ongini yolg‘on va soxta axborot xurujlari daxl qilayotgan, ularning qalbiga din niqobi ostidagi zararli ta’sirlar ortib borayotgan xatarli zamonda barchamizdan uyg‘oqlik, hushyorlik talab qilinadi.

O‘z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chukur bilimli, dunyoda xech kimdan kam bulmagan sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, biz, o‘qituvchilarning asosiy vazifalarimizdan biridir, buni teran anglamoq darkor. Obod va ozod Vatanimizga sodiq, yurtimiz shuhratiga shuhrat qo‘shadigan barkamol insonlarni tarbiyalashdek sharaflı vazifani o‘zlarining umr mazmuni deb biladigan bu

fidoyi insonlarga ham bir umr ta'zimdamiz. Zero, xalqimizda "Ustoz - otangdek ulug'" degan purma'no hikmat bor.

Haq yo'linda kim sanga bir har o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

Har qanday davlatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratish borasida mustahkam baza yaratilgan. Prezidentimizning nutqlaridan birida shunday da'vatkor fikr bildirildi: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renesans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i da'vatkor nutqida ta'kidlaganidek, biz keng ko'lami demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renesans poydevorini yaratishni o'zimizga maqsad qilib belgiladik.

Prezidentimizning siyosiy irodasi natijasida o'qituvchilar qishloq xo'jaligi va obodonlashtirish ishlari hamda boshqa majburiy mehnatdan ozod qilindi. Ularning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi uch yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lab berilmoqda. Bu olis hudud ta'lim muassasalariga etishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiya to'liq miqdorda berilmoqda. SHu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'qituvchilarning oyliklarini yana qayta ko'rib chiqish va oshirish vazifasini belgilab berdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda har qanday odamning havasini uyg'otadigan yuzlab maktablar, yangi oliy o'quv yurtlari barpo etilayotgani, ularning texnik bazasini mustahkamlash, jahon andozalariga mos o'quv vositalari bilan jihozlash, ta'lim sohasi xodimlarining mehnatini har tomonlama rag'batlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, doimiy e'tiborda bo'lib kelayotgani barchamizga ma'lum.

Albatta, bunday sharoit-sharotlar o'z yo'li bilan, lekin biz uchun eng muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi masala-bu ana shunday bilim maskanlarida kimlar dars berayotgani, farzanlarimiz va kelajagi ishonib topshirilgan o'qituvchilarning kasb-

mahorati, bilim va tajribasi, mac'uliyati va fidoiyligi bilan bog'liq ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab qilmoqda. "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu- ilm-fan, ta'lismi va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lismi tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"- degan edilar Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev. Ta'lismi va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir. Bu fikrlar aynan bugungi kunda farzandlarimizga ta'lismi va tarbiya berayotgan ustoz murabbiylarimizga bog'liq. SHiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda dunyo yoshlardan ortda qolish imkoniyatini qo'ldan boy berish bilan barobar.Fan texnika yutuqlarini bilmagan muallim rivojlanishdan ancha orqada qoladi.

Prezidentimizning: "Siz, aziz ustoz va murabbiylar bugun mana shunday o'ta mas'uliyatli jabhada tom ma'noda tarixiy missiyani ado etmoqdasiz. CHunki Vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, o'zining qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega, hech kimdan kam bo'lmagan yoshlarni tarbiyalash- haqiqatdan ham g'oyat ezgu va ulug' vazifadir", degan so'zлari esa o'qituvchi va murabbiylar mehnatiga berilgan eng yuksak bahodir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" Toshkent. "O'zbekiston" 2019 yil 480 bet.
2. Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2019 yil 19 mart kuni videoselektrda so'zlagan nutqi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022 yil, 21 dekabr, № 259( 781)
4. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar T.: "Ma'naviyat" 2006y 10-11b
5. Inson tafakkur olami. Ilmiy maqolalar to'plami. T.: Mumtoz so'z, 2016.
6. Dunyoni ma'rifat qutqaradi. Qo'llanma. T.: Ma'naviyat, 2017.
7. Rashidova, B. (2022). YUKSAK MA'NAVİYAT AVVALO INSON ODOBIDA NAMOYON BO'LADI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN İLMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
8. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 162-168.

9. Rashidova, B. Y. (2022). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O'RNI. Экономика и социум, (9 (100)), 189-192.